

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Sh.Shermuhammadov, A.A.Ergashev**

Alovida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishni takomillashtirish omillari ..... 7

**J.E.Tursunov**

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish..... 12

**FALSAFA, SIYOSAT****N.S.Normatov, Z.S.Jumanov**

Bemorlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari..... 18

**M. B.Xudaybergenova**

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish:  
joriy muammolar va yechimlar tadqiqoti ..... 26

**TARIХ****M.H.Isamiddinov, N. Sh.Kambarov**

Fag'onaning ilk bronza davri jamoalari ..... 30

**O.V.Mahmudov**

«O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid..... 36

**N.Sh.Kambarov, I.S.Xakimova, A.R.Poziljonov**

Jaliltepa yodgorligining Farg'ona vodiysi qadimgi davri madaniyatlaridagi o'rni ..... 45

**D.A.Aytimova**

Qoraqalpog'istonda dastlabki kutubxonalarning shakllanishi va rivojlanish tarixidan ..... 49

**B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov, A.R.Poziljonov**

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari ..... 54

**Sh.T.Quldashev**

“Tarixi shavqiy” asari: topilishi va ilmiy tahlil ..... 66

**Q.Sulaymonov, D.Madaminov**

Yangi bilimlarni o'zlashtirishda tez o'qishning ahamiyati ..... 72

**Z.N.Xatamova**

Qo'qon xonligi moliyaviy tizimiga elchilik masalalarining ta'siri: Xudoyorxonzodaning  
“Anjum at-tavorix” asari asosida ..... 76

**I.M.Burxonov**

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Asomiddin O'rino boyev ilmiy tadqiqotlarini  
o'rganilganlik darajasi ..... 84

**A.N.Maxmudova**

R.X.Sulaymonov tadqiqotlarida qadimgi Sug'd moddiy madaniyati muammolari ..... 88

Toshkent yeparxiyasiga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyati tahlili ..... 91

**D.A.Ismoilova**

Turkiston o'lkasida kon-metallurgi Hya tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). ..... 96

**E.L.Gasanov**

Ganja shahrini ko'chish tarixining tadqiqi haqida ..... 101

**ADABIYOTSHUNOSLIK****A.G.Sabirdinov**

Mirtemirning she'riy mahorati xususida ..... 106

**Z.A.Rahimov**

Tarixiy romanda syujet va xarakter ..... 110

**F.Isomiddinov**

Irim-sirimlar ..... 115

**D.M.Xoshimova**

«Boburnoma»dagi shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy  
vositalarning tarjimada berilishi ..... 120

**ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJI BOR BO'LGAN O'QUVCHILARGA TA'LIM- TARBIYA  
BERISHNI TAKOMILLASHTRISH OMILLARI**

**ФАКТОРЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ С ОСОБЫМИ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ**

**FACTORS FOR IMPROVING THE EDUCATION OF STUDENTS WITH SPECIAL  
EDUCATION NEEDS**

**Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich<sup>1</sup>  
Abdulloh Ergashev Abdumatalib o'g'li<sup>2</sup>**

**<sup>1</sup>Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich** – Farg'ona davlat universiteti pedagogika fanlari doktori, professor.

**<sup>2</sup>Ergashev Abdulloh Abdumatalib o'g'li** – Farg'ona davlat universiteti magistranti.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada alohida ta'limga ehtiyojiga ega shaxslarning ta'limga imkoniyatlari, pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish omillari, ularning ta'limga xizmatlarini yaxshilash borasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarning kelib chiqish sabablari ko'rib chiqilgan. Alohida ta'limga ehtiyojiga ega talabalarga yaratilgan sharoitlar va ularga ta'limga tarbiya jarayonlaridagi faolligi tadqiq etilib, ilmiy xulosalar berilgan.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются образовательные возможности лиц с особыми образовательными потребностями, факторы совершенствования педагогических условий, причины возникновения проблем, которые могут возникнуть в связи с совершенствованием их образовательных услуг. Исследуются созданные условия учащимся с особыми образовательными потребностями и их активность в образовательных процессах, даются научные выводы.

**Abstract**

This article discusses the educational opportunities of persons with special educational needs, factors of improving pedagogical conditions, the causes of problems that may arise in connection with the improvement of their educational services. The conditions created for students with special educational needs and their activity in educational processes are investigated, scientific conclusions are given.

**Kalit so'zlar:** alohida ta'limga ehtiyojiga ega shaxslarning ta'limga imkoniyatlari, pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish omillari, ularning ta'limga xizmatlarini yaxshilash borasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarning kelib chiqish sabablari ko'rib chiqilgan.

**Ключевые слова:** раздельное образование, инклюзивное образование, инвалидность, слепота, ограниченные способности, девиантность, дефектолог.

**Key words:** separate education, inquisitive education, disability, blind, limited ability, deviance, defectologist.

**KIRISH.** O'zbekistonda uzlusiz ta'limga jarayonini takomillashtirish va kadrlar tayyorlash sifati hamda salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biriga aylangan. Mamlakatimizda barcha sohalar qatori nogironligi bo'lgan o'quvchi bolalarning inklyuziv ta'limga ham tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning, "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish"ga qaratilgan 66-bandida<sup>[1]</sup> hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limga tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>[2]</sup>gi PQ-4860-son Qarori<sup>[2]</sup>da ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa O'zbekiston uzuluksiz ta'limga tizimida inklyuziv ta'limga rivojlantirish, alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limga tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'limga xizmatlari sifatini yaxshilash borasida muayyan ishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Bugungi kunda global mashhuvning tobora avj olishi ta'limga jarayonida yangicha tizimli yondashuvlarni amaliyatda qo'llashga ehtiyojni keltirib chiqaradi. Zero, alohida ta'limga ehtiyojiga ega shaxslarga ta'limga tarbiya berish tizimini takomillashtirish ta'limga xizmatlari sifatini yaxshilash, ularning ijobjiy fazilatlarni shakllantirishda oila, umumiyligida ta'limga, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'limga

muassalari, mahallalarning pedagogik-psixologik imkonyatlarni to'liq yuzaga chiqarishni, tizim ishtirokchilari o'rtaida ilmiy-metodik uzviylikni yuqori pog'onalarga ko'tarishni taqozo etadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI**

Respublikamizda alohida ta'limga ehtiyojiga ega talabalarning pegagogik jarayondagi faolligi masalasi bo'yicha M.X.Mirjamolov, F.U.Qodirova, M.X.Ganiyeva, N.M.Latipova M.Usmonova, D.Qosimova, T.Ahmadaliyev, M.Soliyeva kabi olimlarning o'quvchilarni uzuliksiz ta'limga moslastrishning pedagogik, psixologik, fiziologik, tibbiy tomonlariga e'tbor qaratganliklari va shu orqali o'quvchini pedagogik faoliyatga jaib qilish usullarini yoritib bergenliklari tadqiq qilingan.

Shuningdek, dunyo mamlakatlari olimlaridan Meri Richmond, J.Epstein, S.Germain, J.Openxemer, D.M.Makdonald, M.I.Oksford, O.S.Drobot, P.V.Romanov, Ye.R.Yarskaya-Smirnova, V.A.Petrosyan, Ye.A.Tatansko, N.I.Skok, Ye.V.Kulagina, L.I.Savinov, A.V.Lebedevalar tomonidan mazkur muammo tadqiq etilgan bo'lib, ular o'z tadqiqotlarida alohida ta'limga ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarni jamiyatda pedagogik faol shaxs sifatida shakllantrishning pedagogik, psixologik va perceptiv jihatlarini ko'rsatib o'tganlar.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Alohida ta'limga ehtiyojiga ega bo'lgan shaxslarning OTMga integratsiyalashuvi inklyuziv ta'limga muhitida tizimning takomillashuvidan tabiiy bosqichdir. Jumladan, Farg'ona davlat universitetida ham alohida ta'limga ehtiyojiga ega 204 nafar talabalar ta'limga jarayoniga qabul qilindi, ularni o'quv jatrayonlari va universitet hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash borasida talaygina ishlar amalga oshrilmoqda. Jumladan ko'zi ojiz talabalar uchun brayl alifbosidagi o'quv adabiyotlari olib kelindi. Shuningdek, 3-dekabr "Xalqaro nogironlik kuni" munosabati bilan alohida ta'limga ehtiyojiga ega talabalar uchun ma'naviy-marifiy tadbirlar o'tkazildi. Bayram munosabati bilan alohida ta'limga ehtiyojiga ega 204 nafar talabaga 230 ming so'mdan mukofot tariqasida berilishi ham ularning jamiyatimiz e'tborida ekanligidan dalolat beradi. Amalga oshrilgan harakatlar alohida ta'limga ehtiyojiga ega talabalarning pedagogik jarayonda ildam qadam tashlashlari va ilmda boshqa tengdoshlari qatori yutuqlarga erisha olishlari, ochiq va sifatli ta'limga ta'minlash, ta'limga barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'limga olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'limga rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish borasidagi ishlar hisoblanadi. Bu esa, jamiyat va davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan munosabatni qayta ko'rib chiqish, nafaqat ularning huquqlari tengligini tan olish, balki jamiyatning bunday shaxslarga turli sohalarda, shu jumladan, ta'limga ham keng imkoniyatlarni taqdim etish majburiyatini anglash, nogironlikni belgilashning pedagogik modeliga bosqichma-bosqich o'tish bilan bog'liq.

UNICEFning 2021-yilgi hisobotiga ko'ra, dunyo bo'ylab nogironligi bo'lgan bolalar soni deyarli 240 millionni tashkil etadi[3]. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadi[4], nogironligi bo'lgan barcha bolalarning yarmidan kamroq'ini qizlar tashkil qiladi, deb faraz qilsak ham, butun dunyo bo'ylab nogiron qizlar soni sezilarli bo'lishi mumkin. Mavjud ma'lumotlarga asosan, nogironligi bo'lgan o'quvchi qizlarning nogironligi bo'lgan o'g'il bolalarga qaraganda kamroq maktab ta'limgida o'qishini ko'rsatadi. Misol uchun, YUNESKO, "Butunjahon ko'rilar ittifoqi" va boshqalar nogironligi bo'lgan ayollarining "savodxonlik darajasi"ni bir foiz deb baholaydilar, bu esa umumiyy nogironlar uchun taxminan uch foizni tashkil qiladi. Global hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan qizlarning atigi 41,7 foizi boshlang'ich maktabni tamomlay olishadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda bir millionga yaqin imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan fuqarolar[4], shu jumladan, 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar istiqomat qilmoqda. Jumladan, O'zbekistondagi 9 mln. 800 ming nafardan ziyod 16 yoshgacha bolalardan, 100 ming 110 nafarida nogironlik mavjud. Nogironligi bo'lgan bolalarning 54 ming 846 nafari o'g'il, 45 ming 264 nafari qizlar. Ularning 43 ming 47 nafari shaharlarda, 57 ming 63 nafari qishloq joylarda istiqomat qiladi.

Ko'plab davlatlarda nogiron farzand ko'rish oilalar tomonidan ko'pincha "fojia" yoki "jazo" sifatida ko'rildi, aynan nogironligi bo'lgan qiz bolaga ba'zan nohaq munosabatda bo'ladi. Nogironligi bo'lgan qizlar ta'limga olish vaqtida eng ko'p to'siqlarga uchradi, ba'zilar gender qarama-qarshiligidini asosiy to'siq deb bilishsa, boshqalarning fikricha, nogironlikning o'zi nogironligi bo'lgan qizlarning imkoniyatlarini yanada cheklaydi. Nogironligi bo'lgan qizlar maktablarda sifatli ta'limga olishda ko'plab to'siqlarga duch kelishadi, buning asosiy sababi: nogironlikka asoslangan ikki tomonlama kansitish va madaniy qarama-qarshiliklar asosiy tushuntirish omillardir. Quyida ba'zi bir to'siqlarni ko'rib chiqamiz:

## PEDAGOGIKA

---

• iqtisod, ko'pincha, gender rollari bilan o'zaro bog'liqdir. Kambag'al oilalarda mavjud cheklangan resurslar sabab nogironligi bo'lgan qizlarning ta'limga olishlari ehtimoldan yiroq, ayniqsa, agar ularga nogironlik bilan bog'liq jihozlar, maxsus transport yoki alohida shaxs yordami kerak bo'lsa, maktab ta'limga borish darajasi pasayadi. Biroq o'rta va yuqori iqtisodiy ta'minlangan oilalaridagi nogironligi bo'lgan qizlar nafaqat kambag'al oilalardagilarga qaraganda mактабга borish ehtimoli yuqori, shuningdek, nogiron bo'lмаган tengdoshlariga qaraganda ham ta'limga va kasbiy imkoniyatlardan ko'proq foydalanishlari mumkin;

• zo'ravonlik barcha qizlar uchun teng ta'limga olishlariga to'siq bo'lsa-da, bu nogironligi bo'lgan qizlar uchun ko'proq muammo bo'lishi mumkin. Mavjud ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, alohida ta'limga ehtiyojiga ega bo'lgan qizlar oilada, muassasalarda va jamiyatda sog'lom bo'lgan tengdoshlariga qaraganda ko'proq zo'ravonlikka duchor bo'lishadi. Ular duch keladigan zo'ravonlik surunkali va og'irroq, ba'zilari alohida shakllarga ega bo'lishi mumkin, masalan, g'amxo'rlik, parvarishdan voz kechish. Zo'ravonlik ayiblovining bir qismi nogironlikning o'zi bo'ladi, bu ba'zi qizlar uchun zo'ravonlik holatlarini baholash, o'zini himoya qilish yoki qochish va zo'ravonlik holatlari haqida xabar berishni qiyinlashtiradi. Ko'pincha kasal, nochor, akseksual va kuchsiz deb qabul qilingan nogironligi bo'lgan qizlar oson nishon sifatida ko'rildi. Shuningdek, ular muntazam ravishda zo'ravonlikni tan olish va unga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va imkoniyatlardan mahrum bo'lishadi;


• maktabgacha bo'lgan masofa ko'plab qizlar uchun ta'limga to'sig'idir. Bunda ham qizlarning kuzatuvchisiz borib-kelishi kabi muammolar mavjud. Ba'zi hududlarda nogironligi bo'lgan o'quvchilarga xizmat ko'rsatadigan maxsus ta'limga maktablari bo'lib, ko'pincha, shahar markazlarida joylashgan bo'ladi, qishloq joylardan kelgan nogironligi bo'lgan o'quvchilar maktabga borish uchun uzoq masofadan kelishi hamda ko'pincha maktabda yashashlari kerak bo'ladi[5].

Yuqorida ta'kidlangan nogironligi bo'lgan o'quvchi qizlar duch kelishi mumkin bo'lgan to'siqlardan himoyalash, ularni maqsadli va manzilli qo'llab-quvvatlash uchun pedagogik ish kasbiy faoliyatining maktabdagisi roli muhimdir. Bunda nogironligi bo'lgan o'quvchilarni sifatli ta'limga olishini tashkil etishda oila-maktab jamoatchilik hamkorligini ta'minlash orqali tashkil etish muhimdir.

**Baholash:** Inkluyuziv ta'limga ta'minlashda pedagogning eng muhim rollaridan biri erta aralashuvni rejalshtirish uchun nogironligi bo'lgan o'quvchi qizning ehtiyojlarini baholashdir. Baholash o'quvchilarning turli ehtiyojlari qondirilgan muhitni yaratishda va aralashuv rejalarini ishlab chiqaradigan keng qamrovli jarayondir. Pedagog tomonidan bolaning ehtiyojlarini baholash, bolaga va uning atrof-muhitiga ta'sir qiluvchi turli jihatlarni o'rganishni talab qiladi va albatta nogironligi bo'lgan bolalarni umumiyligi ta'limga jaib qilishdan foyda olish maqsadida amalga oshirilishi kerak. Pedagogning baholash natijasi psixolog, o'qituvchi, direktor hamda boshqa mutaxassislarga inkluyuziv ta'limga dastur va rejalarini ishlab chiqishga hissa qo'shish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Quyidagi rasmda bola va uning oilasini har tomonlama diagnostikasini o'tkazishda baholanishi kerak bo'lgan parametrlar keltirilgan. Bola va oila haqida ma'lumot to'plashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan uchta asosiy o'chov va ushbu o'chovlarga kiritilgan asosiy o'chamlarni aks ettiruvchi baholash doirasi uchun xalqaro asosni taqdim etadi[6. -B.87].

### Bola va uning oliasi ehtiyojlarini baholash modeli



Baholash doirasi yuqorida uchburchak shaklida umumlashtiriladi.

Pedagogning roli inklyuziv ta'limni ta'minlash uchun nafaqat o'quvchining muktab muhitini, balki oilasi, tengdoshlari, do'stlari va qo'shnilarini ham hisobga olgan holda, uning umumiyligi muhitida bolani tushunishdir. Inklyuziv ta'limni ta'minlashdan tashqari pedagogik nogironligi bo'lgan o'quvchini kuch nuqtayi nazaridan ko'radi, kuchli tomonlarini kashf etadi va ulardan o'z akademik maqsadlariga erishish uchun foydalanadi.

**Ehtiyojlarni baholash** to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita o'quvchiga bo'lgan turli xil tizimlarni hisobga olgan holda yaxlit tarzda amalga oshiriladi. Shu sababli, o'quvchining turli ehtiyojlarini baholashda o'qituvchilardan o'quvchining muammosi bo'yicha, ota-onalardan bolaning uydagi xatti-harakatlari haqida ma'lumot olish, bundan tashqari, oilanining pedagogik-iqtisodiy sharoitlari, masalan, oilanining tuzilishi, moliyaviy ahvoli haqida ma'lumot to'plash, bolaning faoliyatini va qarindoshlari, do'stlari va mahalladagi xatti-harakatlarini o'rganishlardan foydalaniladi. O'quvchining muammosini konsepsiyalashda pedagogik turli yo'nalishlarda, masalan, to'g'ridan-to'g'ri xizmatlar ko'rsatish, maslahatlar berish va umumiyligi inklyuziv ta'limni ta'minlash uchun resurslarni bolaning ehtiyojlarini bilan to'g'ri bog'lash uchun aralashuv rejalarini ishlab chiqish kabilarda faoliyat ko'rsatadi.

#### XULOSA

Bugungi kunda nogironligi bo'lgan o'quvchi qizlarni tarbiyalash orqali hayotga tayyorlashda, ular faoliyatidagi muammolarni, kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida oila – muktab – mahalla hamkorligidan kuchli pedagogik hamkorlikni ta'minlovchi oila - muktab - jamoatchilik hamkorligini rivojlantirish zarurligi haqida konsensus aniq shakllanmoqda. Kuchli oila-muktab va jamoatchilik aloqalari va yordamlari nogironligi bo'lgan o'quvchi qizlarga belgilangan ta'lim standartlariga javob berishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, eng katta pedagogik to'siqlarga duch kelgan nogironligi bo'lgan o'quvchi qizlar farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik faoliyati respublikamiz maktablari kontekstida ma'lum emas, ammo ta'lim tizimidagi islohotlar tufayli nogironligi bo'lgan o'quvchilarga samarali xizmat ko'rsatish uchun ta'lim muassasalariga pedagogika mutaxasisligini kiritish zarurati yuzaga keladi. Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalarini binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash, alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, alohida ta'lim ehtiyojlar

## PEDAGOGIKA

---

bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lif tizimini tashkil etish, umumta'lif muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash, jamoatchilik o'rtasida alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish, alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni izchil maxsus jihozlar bilan ta'minlash kabi bir qator muammolarni bosqichma-bosqich amalga oshrish ta'lifda a'lovida talim ehtiyojiga ega talabalarning pedagogik falolligini oshrish uchun xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori. Qarori <https://lex.uz/docs/5044711>
3. The Right to Education for Women and Girls with Disabilities . <https://www.ungei.org/publication/right-education-women-and-girls-disabilities>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga murojaati <https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/ozbekiston-xalqiga-murojaat>
5. Education for All: a gender and disability perspective. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000146931>
6. World Health Organization & World Bank. (2011). World report on disability 2011. World Health Organization. <https://apps.who.int/iris/handle/10665/44575>
7. Максудов, У. К. (2015). Проблемы и перспективы инклюзивного образования. Молодой ученый, (22), 830-831.
8. Максудов, У. К. (2015). Социально-педагогические и экономические проблемы повышения качества непрерывного образования на основе внедрения национальных ценностей. Молодой ученый, (12), 776-777.
9. Максудов, У. К. (2018). Проблемы социальной активности молодёжи в духовно-нравственном воспитании. Молодой ученый, (46), 306-307.